

5-6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA FOYDALANISH UCHUN AYRIM METODLAR

Xolmatova Nigora Yakubovna

Qo`qon DPI katta o`qituvchisi

Xolmatova Tabassum Baxtiyorjon qizi

Qo`qon DPI talabasi

Annotatsiya: maqolada 5-6-sinf adabiyot darsliklaridagi yangiliklar, ularning zamonaviy dunyo bilan hamnafaslik g'oyalari, ularning yoshlar ongiga ta'siri, yoshlarda ushbu darsliklar orqali adabiyotga qiziqish uyg'ota olish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan. Mazkur darsliklarni yoshlarga yetkazish usullari, darsliklarning globallashuv jarayoniga mosligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, metod, dars, globallashuv, fanlararo aloqa.

Bugungi zamonaviylashib borayotgan davrimizdagi o'zgarishlar jamiyatimizning har bir bo'g'iniga o'z ta'sirini o'tkazishi oddiy holga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Kundalik faoliyatimizda bunday holatlarga o'zimiz duch kelamiz yoki shu jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanamiz. Lekin hech qaysi xalq asrlar davomida hukmron bo'lib kelgan an'analarini yangiliklarga osonlikcha, „o'rin bo'shatib“ bergisi kelmaydi. Faqat bu odatlarga yangicha qarash bilan yondashish mumkin. Ta'lim tizimimizda ham ko'p yillar davomida ma'lum bir qoliplarga solingan holatda o'qitilib kelindi. Vaqt o'tishi natijasida talablar va shunga moslangan takliflar ham o'zgardi. O'qitish tizimiga zamonaviy ruh olib kirildi. Darsliklarga har bir mavzuga o'zgacha yondashish, fanlararo aloqaga moslangan holda boblarga ajratish, dars davomidagi ma'lumotlarni mustahkamlashga qaratilgan rasmi va mantiqiy topshiriqlar va boshqa turdagi qismlar qo'shildi. Bu esa bevosita hozirgi zamon bolalarining xarakteri va qiziqishlari bilan bog'liq. Darslikning o'zi shuncha imkoniyatlarni o'zida aks ettirgan bo'lsa, o'qituvchidan ham ma'lum bir tayyorgarlik, o'zgacha yondashuvlarni talab etadi. Masalan, 5-sinf darsligidagi ayrim mavzularni qanday qilib boshlash to'g'risida ayrim takliflarimizni berib o'tsak. Kitobning ilk mavzusi „Adabiyot- so'z san'ati“ deb nomlangan. Bu darsda biz o'quvchiga adabiyot haqida umumiy fikr berishimiz, uni fanga qiziqтира olishimiz kerak. O'quvchining xarakteri va yosh jihatlarini hisobga oladigan bo'lsak, u endigina boshlang'ich sinfdan yuqori sinf bo'lgan, hali kitob o'qish, adabiyot haqida tushunchasi oz. Bu dars, nafaqat bu sinf, balki butun hayoti davomida adabiyotga mehri aynan shu dars orqali belgilanadi. Aslida har bir dars shunchalik darajada muhim. Darslikda Muhammad Yusufning „Vatanim“ she'ridan parcha berilgan. Darsni shu she'r asosida yaratilgan musiqa bilan boshlash, musiqadan so'ng o'quvchilardan o'zlarida kechgan his-tuyg'ularini so'rab, mulohazalarni bo'lishish, shu kuyning yaratilishi bevosita adabiyot ekanligini aytish fanning yana bir

bora chuqur singdirilishiga olib keladi. Maqollarni tushuntirishda esa „ detaldan fikrga” usulini qo'llash foydadan holi bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar detallarning rasmini ko'rib, undan maqolni topadi.

Keyingi yillarda kino sohasini rivojlantirish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Ko'p badiiy asarlar, voqea- hodisalar haqida kinolar ishlab chiqildi. Albatta, kinolar asar bilan bir xil bo'lmasligi mumkin, biroq ikkala xayolot mahsulining ham umumlashtiruvchi jihatlari bo'ladi. Masalan, Imom Buxoriyning hayoti va uning ijodini tushuntirishda aynan shu usulni qo'llash samaraliroq.

Keyin Ezop va uning masallari haqida mavzu berilgan. Ezop masallarini tushuntirishda undagi asosiy kalit so'zni topish va undan butun masal g'oyasiga borish mumkin. Masalan, „Burgut, zag'cha va cho'pon” masalida „hasad”ni, „eshak bilan baqalar” da esa „ko'lmak”ni asosiy tushuncha sifatida olish mumkin.

Oybekning „Fanorchi ota” hikoyasini tasviriy san'at bilan bog'lab o'tkazish mumkin. Avvalgi yillarda adabiyot darsliklari ijodkorning rasmi, uning hayoti va ijodi bilan kifoyalangan bo'lsa, hozirgi zamonaviy ta'lim uslubida har bir darsga ijodkorona yondashish ustun. Ba'zi badiiy asarlarni tushuntirishda rasm bilan ishlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki adabiyot his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lgani uchun har bir o'qiguvchi kitob o'qiganda, barchasi o'ziga xos kechinmalarni boshidan kechiradi. Yuqoridagi hikoyani tushuntirishda o'quvchilarga „his qilganingizni tasvirlang” tarzida murojaat qilinsa, har bir o'quvchi hikoyadan o'ziga yaqinroq bo'lgan qismini aks ettiradi, tahlil qiladi. Bundan o'qituvchi o'quvchi haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishi mumkin.

Abdulla Oripovning hayoti o'tilganda ushbu darsni davlat madhiyasi bilan boshlash, Erkin Vohidovning „Nido” dostonini tushuntirishda „Ilhaq” filmidan parchalar namoyish etib, dars olib borilsa, ushbu ijodkor haqida o'quvchilarda ma'lum bir tasavvurlarni, ijodkorga ijodiga qiziqishlarini uyg'otish muhim hisoblanadi. Darsliklarimizdagi mavzular o'zbek adabiyotining namoyandalari bilan cheklanmasdan, jahon xalqlari adabiyoti vakillari va ularning asarlaridan parchalar keltirilyapti. Bu o'quvchida boshqa xalqlar va ularning madaniyati haqida tasavvurlarni paydo qiladi. Masalan, ushbu darslikda berilgan Nodar Dumbadze hayoti va uning „ Hellados” hikoyasi berildi. O'qituvchi jahon adabiyoti vakillarini tushuntirishda ular mansub bo'lgan xalq haqida qiziq faktlar, urf-odatlar haqida ma'lumot berilib, keyin ijodkor hayotiga o'tilsa, o'quvchiga yanada tushunarliroq bo'ladi.

6-sinf adabiyot darsligi bo'limlari boshqa fanlar bilan aloqasi o'zaro bog'liq holda aks ettirilgan. Yana shuni aytib o'tish mumkinki, ko'p yillar davomida ta'lim tizimimizda an'anaviy ish turlari o'z kuchini ko'rsatib keldi. Mazkur darslikdagi o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar esa ularga yangicha qarash

lozim ekanligini talab etadi. Shunga ko'ra, dars uchun mo'ljallangan ko'rgazmalar ham aynan darslikka mos, uni o'quvchilarga yanada boyitilgan holda yetkazishga qaratilgan bo'lishi kerak. 6-sinf adabiyoti uchun maxsus ko'rgazmali vositalar ishlab chiqilsa va ular quyidagi ko'rinishda bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: Katta qattiq qog'ozga (plakat ko'rinishidagi) kitobdagi 4 bo'limni o'ziga xos tushunchalar va belgilar bilan aks ettiriladi. Masalan, adabiyot fanini tarix fani bilan aloqasi aks etgan qismida tarixiy ruh aks ettiriladi. Shoirlarning asarlari nomi keltirilmasdan (chunki bular mundarijada berilgan) „kalit so'zlar“ keltiriladi: „innaykeyin“ tarzida. O'quvchilarga bunday ko'rinishda ma'lumotlarni yetkazish ularda ramzlar tilini tushunish, karikatura va boshqa turdagi tasvirlarni mukammalroq anglashlariga yordam beradi. Bunday ish turini o'quvchilar orasida kengaytirilgan holda bajartirish ularga yuqori sinflarda hajman katta bo'lgan asarlar tilini, undagi majozlarni tushunishga „poydevor“ vazifasini bajaradi. Abdulla Qahhorning „O'g'ri“ hikoyasini filolog sifatida sotsiol metod bilan, didaktik tahlilda hozirgi davr amaldorlari bilan bog'lab tushuntirilsa, albatta, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xususiyat bolalardan ko'pining kelgusidagi kasblari – aynan lavozimli, amaldorlikni istashlari bilan bog'liq.

Keyingi yillarda butun adabiyot ahlining ko'p vakillari uchun „mumtoz adabiyot va ular bilan bog'liq tushunchalar“ muammoli vaziyat bo'lib keladi. Bunday holatning ildizi bevosita maktab ta'limidagi klassik ijodkorlar va ularning adabiy merosini o'qitish bilan bog'liq. Aslida butun Sharq xalqlarining adabiyotining tamal toshi o'sha biz bilgan „tushunarsiz“ adabiyoti bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. O'quvchilarda quyi sinfda o'qiyotganligidayoq ularga asl adabiyotimiz qanaqa ekanligi, iste'dodlarning zamon va makonda chegaralarni bilmay o'tib kelayotganligini anglatishimiz kerak. Masalan, 6-sinf o'quvchisiga ruboiy janrini tushuntirishda, hech bo'lmaganda, unga qofiyalanish tizimini o'rgatish zarur. Uning qaysi vaznda yozilishini yuqori sinflarda o'rganib oladi. O'quvchilarga qofiya unsurini o'rgatishda, ularning yoshiga mos yo'ldan borish kerak. Masalan, o'qituvchi qofiyani tushuntirishda bir so'z aytib shunga o'xshagan so'zlarni ayting, deb murojaat qiladi. Bolalar o'zidagi so'zlarni aytaveradi. Keyingi bosqichda esa ustoz shu so'z tarkibidagi tovushlarga mos so'z ayting, deb murojaat qilsa, o'xshamaydigan so'zlar ajratilsa, bolada qofiyani tushunishdagi dastlabki ko'nikmalar shakllantiriladi. O'qituvchi qofiyadosh va qofiyadosh bo'lmagan so'zlarni bir joyga jamlagan so'zlar „sandig'i“ tashkil etilib, o'quvchilarga shularni ikki guruhga ajratish topshirig'i berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Endigi bosqichlarda o'quvchilarga ularga tanish bo'lgan she'rlarning qofiyalanish tizimini aniqlashtirish, keyin mumtoz adabiyot janrlarini tushuntirish ishlari olib borilsa, o'quvchilarda ozmi ko'pmi mehr uyg'otiladi.

Lengston Hyuzning „Rahmat, xonim“ hikoyasini qiyosiy tahlil metodidan foydalangan holda „Mening o'g'rigina bolam“ hikoyasi bilan qiyoslanib tushuntirilsa,

bosh qahramonlarning farqli va umumiy xususiyatlarini o'quvchi topsa, unda ikki xalq haqida tasavvur, g'oyalar mustahkamlanadi. Farqlanuvchi xususiyatlardan ikki hikoyaning o'ziga xos detallari, obrazlari, so'z chizgilaridan keltirilsa, Birlashtiruvchi xususiyatlardan umuminsoniy g'oyalar: mehr, muhabbat, shafqat kabi tuyg'ular xoh ingliz, xoh o'zbek bo'lsin, kim bo'lishidan qat'i nazar, baribir insoniyatni jamlab turuvchi omillar borligi haqida o'qituvchi bolalarga yoshlariga mos fikr va tushunchalarni berib o'tsa, o'quvchilarda gumanizm (insonparvarlik) g'oyalari shakllanishiga ma'lum bir g'oyalarning „uchqun“ini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, darslikni o'quvchi ko'z o'ngida qaytadan gavdalantirish o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. O'qituvchi kitobdagi „quruq“ ma'lumotlar bilan cheklanib qolaverar ekan, o'quvchilarda ham shunga mos dunyoqarash, saviya shakllanadi. O'quvchi kitobga „zerikarli varoqlar to'plami“, telefonga „zavq va maroq koni“ sifatida qarashini o'zgartirish, albatta, ziyoli qatlam: o'qituvchi va olimlarga bog'liq. Biz o'qituvchilar darslikka go'yoki bolaning kitobga mehr uyg'otish deb nomlangan „qo'rg'on“ning „eshig“i sifatida qarashimiz zarur. Agar bolaga shu „eshik“ni topish, unga mos kalitlarni topish, ochish sirlarini o'rgatsak, singdirsak, haqiqiy ziyo tarqatuvchi ma'rifatli, ziyoli qatlam vakili bo'lamiz. Ziyoli qatlam xalq va davlat o'rtasidagi „ko'prik“dir. Agar bu qatlam ilm tarqatib, „ko'prik“ bo'lib, ikkala tomonni muvozanatlashtirib turmasa, demak, bu jamoa ziyonli qatlarga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Husanboyeva Qunduzxon. Roza Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent- 2018.
- 2.Mirqosimova M. Adabiy tahlil metodikasi. -T:RÖÖM, 1993.
- 3.Quronov Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent- 2018.
- 4.Yöldoshev Qozoqboy.Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.- T: O'qituvchi, 1996